

HOFIZ UBĀHIYNING «TUHFAT UL-AHBOB» LUG‘ATIDA TOPONIMLARNING SEMANTIK VA FUNKSIONAL TASNIFI

Majitova Sabohat Jamilovna,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti,
Tojik filologiyasi va Sharq tillari kafedrası dotsenti*

Vaxidova Gulnoza Amonovna,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrası tayanch doktoranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18721358>

Annotatsiya. Mazkur maqola XVI asrga oid izohli lug‘at – «Tuhfat ul-ahbob» asarida qayd etilgan toponimlarni onomastik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi lug‘atda uchraydigan toponimlarni semantik va funksional jihatdan tasniflash, ularni oronimlar, gidronimlar, oykonimlar, urbanonimlar hamda me‘moriy-harbiy va diniy toponimlar guruhlariga ajratish hamda ushbu nomlar orqali muallif Hofizi Ubāhiyning geografik, tarixiy va madaniy dunyoqarashini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy-tahliliy, qiyosiy va kontekstual usullardan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, «Tuhfat ul-ahbob»dagi toponimlar faqat geografik obyektlarni nomlash vositasi bo‘lib qolmay, balki XVI asrning ijtimoiy, siyosiy, diniy va adabiy tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Toponimlar izohida diniy rivoyatlar va klassik adabiyot namunalarining keltirilishi ularning semantik doirasini kengaytirib, maʼkon tushunchasini ramziy va madaniy sathga ko‘taradi. Tadqiqot natijalari «Tuhfat ul-ahbob»ni onomastika va tarixiy tilshunoslik uchun muhim ilmiy manba sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: toponimika, onomastika, «Tuhfat ul-ahbob», lingvomadaniy tahlil, tarixiy geografiya, fors-tojik lug‘atshunosligi.

Abstract. This article is devoted to the onomastic and linguocultural analysis of toponyms recorded in the 16th-century explanatory dictionary “Tuhfat ul-ahbab”. The main aim of the study is to classify the toponyms found in the dictionary from semantic and functional perspectives, grouping them into oronyms, hydronyms, oikononyms, urbanonyms, as well as architectural-military and religious toponyms, and to identify the geographical, historical, and cultural worldview of the author, Hafiz-i Ubāhī, through these names.

Descriptive-analytical, comparative, and contextual methods were employed in the research. The analysis shows that the toponyms in “Tuhfat ul-ahbab” function not only as names of geographical objects but also as significant linguocultural units reflecting the social, political, religious, and literary perceptions of the 16th century. The frequent inclusion of religious narratives and classical literary quotations in the explanations of toponyms expands their semantic scope and elevates the concept of place to a symbolic and cultural level. The findings allow “Tuhfat ul-ahbab” to be evaluated as an important source for onomastics and historical linguistics.

Keywords: toponymy, onomastics, “Tuhfat ul-ahbab”, linguocultural analysis, historical geography, Persian-Tajik lexicography.

Аннотация. Настоящая статья посвящена ономастическому и лингвокультурологическому анализу топонимов, зафиксированных в толковом словаре XVI века «Тухфат ул-ахбоб». Основной целью исследования является семантико-функциональная классификация топонимов, представленных в словаре, их распределение по группам оронимов, гидронимов, ойконимов, урбанонимов, а также архитектурно-военных и религиозных топонимов, а также выявление на основе данного материала географического, исторического и культурного мировоззрения автора – Хафиза Убахи.

В ходе исследования использованы описательно-аналитический, сравнительный и контекстуальный методы. Результаты анализа показывают, что топонимы в «Тухфат ул-ахбоб» выполняют не только функцию обозначения географических объектов, но и выступают важными лингвокультурными единицами, отражающими социальные, политические, религиозные и литературные представления XVI века. Привлечение религиозных преданий и образцов классической литературы в процессе их толкования расширяет семантическое поле топонимов и переводит понятие пространства в символично-культурную плоскость. Полученные результаты позволяют рассматривать «Тухфат ул-ахбоб» как значимый научный источник для ономастики и исторического языкознания.

Ключевые слова: *Топонимика, ономастика, «Тухфат ул-ахбоб», лингвокультурологический анализ, историческая география, персидско-таджикская лексикография.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va onomastika tadqiqotlarida toponimlar muayyan hududning faqat geografik tavsifini aks ettiruvchi nomlar sifatidagina emas, balki tarixiy, madaniy, ijtimoiy va ma'naviy axborotni mujassam etgan muhim leksik birliklar sifatida qaraladi. Toponimlar orqali jamiyatning makon haqidagi tasavvurlari, nomlash an'analari, shuningdek tarixiy xotira va madaniy tajribasi namoyon bo'ladi. Shu bois, yozma manbalarda qayd etilgan toponimlarni o'rganish til, madaniyat va tarixning uzviy bog'liqligini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [4; 16].

XVI asrga oid izohli lug'at – «Tuhfat ul-ahbob» Hofizi Ubāhiy qalamiga mansub bo'lib, unda leksik birliklar bilan bir qatorda turli toponimik nomlar ham keng yoritilgan. Mazkur asar o'z davrining geografik bilimlari, tarixiy-madaniy qarashlari va adabiy an'analarni aks ettiruvchi muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Lug'atda uchraydigan toponimlar faqat joy nomlari sifatida emas, balki obyektlarning tabiiy xususiyatlari, ijtimoiy vazifasi, siyosiy va diniy ahamiyati bilan bog'liq holda izohlanganligi bilan ajralib turadi. Bu holat klassik fors-tojik lug'atchiligi an'analari, xususan Asadi Tusiy maktabi bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi [6; 17].

Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ayrim tadqiqotlarda «Tuhfat ul-ahbob»ning leksikografik va adabiy jihatlari qisman yoritilgan bo'lsa-da, undagi toponimlarning tizimli tasnifi hamda ularning lingvomadaniy va ma'rifiy funksiyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, oronimlar, gidronimlar, oykonimlar, urbanonimlar, shuningdek me'moriy-harbiy va diniy toponimlarning lug'atdagi o'rni va vazifasini kompleks tarzda tahlil qilish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi «Tuhfat ul-ahbob» asarida qayd etilgan toponimlarni onomastik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish, ularni semantik va funksional jihatdan tasniflash hamda mazkur toponimlar orqali muallifning geografik, tarixiy va madaniy dunyoqarashini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari o'rta asrlar fors-tojik madaniyati, tilshunosligi va onomastik tizimini yanada chuqurroq anglashga xizmat qilishi kutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy manbasi sifatida XVI asr Hofizi Ubāhiyga mansub «Tuhfat ul-ahbob» izohli lugʻatining tojik muhaqqiqi Hafiz Raufzoda tomonidan dastxatlar asosida tayorlangan nashri [15] tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida lugʻat matni sahifama-sahifa koʻzdan kechirilib, unda qayd etilgan barcha toponimik birliklar kartotekalash usuli asosida alohida roʻyxatga olindi va tasnif qilindi. Har bir toponim izohlanish konteksti va keltirilgan adabiy iqtiboslari bilan birga qayd etildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tavsifiy-tahliliy metod – toponimlarning lugʻatdagi izohlanish xususiyatlarini aniqlash va semantik tarkibini tahlil qilish uchun.
- Semantik tasniflash usuli – toponimlarni oronimlar, gidronimlar, oykonimlar, urbanonimlar hamda meʼmoriy-harbiy va diniy toponimlarga ajratish uchun.
- Kontekstual tahlil – toponimlar izohida keltirilgan diniy rivoyatlar va klassik adabiy manbalar (Asadi Tusiy, Firdavsiy va boshqalar) bilan bogʻliqligini aniqlash maqsadida.
- Qiyosiy-tahliliy metod – lugʻatdagi sharhlar uslubini fors-tojik lugʻatchilik anʼanalari bilan taqqoslash uchun.

Toponimlar makrotoponim va mikrotoponimlarga ajratilib, ularning strukturaviy va funksional xususiyatlari alohida oʻrganildi. Barcha misollar va havolalar 1992 yilgi Dushanbe nashri sahifalariga muvofiq holda berildi.

Natijalar va tahlil. Toponim atamasi yunoncha *tópos* – «joy» va *ónoma* – «nom» soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, joy nomi yoki geografik obyekt nomini anglatadi [16,95; 4; 9]. Zamonaviy tilshunoslik va onomastika tadqiqotlarida toponimlar nafaqat geografik obyektning joylashuvini bildiruvchi birliklar sifatida, balki oʻzida tarixiy, madaniy, ijtimoiy va maʼrifiy axborotni mujassam etgan murakkab leksik tizim unsurlari sifatida talqin etiladi [16,142]. Shu bois, toponimlarni oʻrganish muayyan davrda jamiyatning nomlash tizimi, makon haqidagi tasavvurlari hamda tarixiy xotirasini qayta tiklash imkonini beradi.

«Tuhfat ul-ahbob» asari materiallarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, mazkur lugʻatda toponimlar faqatgina makon yoki geografik joyni belgilash vositasi sifatida qoʻllanilmagan. Hofizi Ubāhiy joy nomlarini sharhlar jarayonida, avvalo, obyektlarning **tabiiy va funksional xususiyatlariga** – shahar, togʻ, daryo, qalʼa, hisor, sahro, butxona kabi turlariga, shuningdek ularning **tarixiy-madaniy makondagi oʻrniga** alohida eʼtibor qaratadi. Bu hol toponimlarning lugʻat tarkibida izohiy va maʼrifiy vazifani bajarishini, shu orqali muallifning geografik bilim doirasi hamda tarixiy-madaniy dunyoqarashini aks ettirishini koʻrsatadi.

Metodologik nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda toponimlar toponimika fanining tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Toponimika geografik obyektlar nomlarini lingvistik, tarixiy va geografik usullar asosida oʻrganadigan fan boʻlib, uning predmeti nomlarning kelib chiqishi, maʼnosi, leksik-semantik va etimologik tuzilishi hamda tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuz bergan oʻzgarishlarini tahlil qilishdan iboratdir. Shu asosda «Tuhfat ul-

ahbob»dagi toponimlar leksik birliklar, tarixiy dalillar va geografik muhitning muhim unsurlari sifatida kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, lug'atda **yirik geografik obyektlar nomlari bilan bir qatorda mahalliy makon nomlari ham keng qayd etilgan**. Obyektlarning miqyosi nuqtayi nazaridan mazkur toponimlarni **makrotoponimlar** va **mikrotoponimlar**ga ajratish mumkin [8,48]. Makrotoponimlar hududlar, tog'lar, daryolar va viloyatlar nomlarini qamrab olsa, mikrotoponimlar aholi punktlari, ko'chalar, qal'alar va chegaralangan makonlar nomlarini ifodalaydi. Ushbu shartli tasnif lug'atdagi toponimik zahiraning strukturaviy va funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Nomlangan obyektlarning tabiati hamda ularning lug'atning o'zida izohlanish uslubiga tayangan holda, «Tuhfat ul-ahbob»da qayd etilgan toponimlarni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin: **oronimlar** (tog'lar va tabiiy relyef nomlari), **gidronimlar** (suv obyektlari nomlari), **oykonimlar va urbanonimlar** (shaharlar, qishloqlar va aholi yashash punktlari nomlari), shuningdek **me'moriy-harbiy va diniy toponimlar** (qal'a, hisor, borgoh, butxona). Ushbu tasnif lug'atda makon nomlashning puxta va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Toponimik guruhlar orasida oronimlar alohida o'rin tutadi, chunki ular tabiiy relef bilan bevosita bog'liq bo'lishi bilan birga, ko'pincha mifologik va diniy tasavvurlarni ham o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan, «Tuhfat ul-ahbob»dagi toponimlar faqat geografik axborotni emas, balki muallif yashagan davrning madaniy, diniy va tarixiy dunyoqarashini ham aks ettiruvchi ko'p qatlamli onomastik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Oronimlar. Oronim atamasi yunoncha *óros* – «tog'» va *ónoma* – «nom» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, tog'lar, tepaliklar, tog' tizmalari hamda umuman tabiiy relyef unsurlarining nomlarini anglatadi [2; 8; 16,62,]. Onomastik tadqiqotlarda oronimlar toponimlarning alohida guruhi sifatida qaraladi, chunki ular nafaqat geografik obyektning joylashuvini ifodalaydi, balki ko'pincha mifologik, diniy tasavvurlar hamda tabiatga oid dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

«Tuhfat ul-ahbob» asari materiallarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur lug'atda oronimlar muhim o'rin egallab, XVI asrning tabiiy va geografik makonini tasvirlashda asosiy unsurlardan biri sifatida qo'llanilgan. Hofizi Ubāhiy tog'lar va tabiiy relyef nomlarini izohlash jarayonida, asosan, obyektning turiga, geografik joylashuviga, ayrim hollarda esa ularning rivoyatga oid yoki diniy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bu yondashuv oronimlarning lug'atda faqat makon nomlari sifatida emas, balki madaniy va ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan onomastik birliklar sifatida taqdim etilganidan dalolat beradi.

Lug'at materiallari asosida oronimlar guruhiga mansub quyidagi birliklarni ajratish mumkin: **Alvand, Bazil, Manqala, Marg', Ma'gilgoh, Tund, Rahu, Tal, Xarsang, Kutir, Sarob, Basara, Homun**. Ushbu nomlar lug'atda aynan tabiiy relyefga – tog', tog' etagi,

qiya sahro va shunga o'xshash geografik unsurlarga ishora qilgan holda izohlangan bo'lib, nomlash funksiyasiga ko'ra oronimlar sirasiga kiradi. Jumladan, «Tuhfat ul-ahbob»da **Alvand** oronimi quyidagicha sharhlanadi: *Alvand – Hamadon hududida joylashgan ulkan tog' nomi [15,21]*.

Mazkur izoh muallifning ixcham va aniq ta'rif berish tamoyiliga amal qilganini ko'rsatadi. Bu yerda obyektning yirikligi va geografik joylashuvi asosiy belgi sifatida ajratib ko'rsatiladi, bu esa klassik lug'atshunoslikka xos bo'lgan minimal, ammo informativ izohlash uslubidan dalolat beradi. Shuningdek, **Rahu** oronimi lug'atda nafaqat geografik, balki diniy-rivoyatiy kontekstda izohlanadi:

Rahu – Hindistonda joylashgan tog' bo'lib, rivoyatlarga ko'ra Odam alayhissalom jannatdan aynan shu tog'ga tushirilgan. Asadiy shunday kuylaydi:

Ба кӯҳи Раҳу бар гирифтан оҳ,

Чи кӯҳе, баландеш бар чарху моҳ.

Ки гӯянд Одам ки фармон бихишт,

Бар он кӯҳ бар уфтод аз бихишт. [15,152]

Bayt mazmuni: Shoir Rahu tog'ini nihoyatda baland va ulug' tog' sifatida tasvirlaydi; u osmon va oyga tenglashar darajada yuksak deb ta'riflanadi. Rivoyatga ko'ra, Odam alayhissalom jannatdan quvilgach, aynan shu Rahu tog'iga tushgan.

Ushbu misol Hofiz Ubāhiyning oronimni sof geografik nom sifatida emas, balki diniy va mifologik rivoyatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin qilishini ko'rsatadi. Odam alayhissalomning Rahu tog'iga tushirilgani haqidagi rivoyat makon mazmunini geografik darajadan diniy-ma'rifiy sathga ko'taradi. Asadiy baytining keltirilishi esa lug'aviy izohni adabiy dalil bilan mustahkamlab, lug'atshunoslik va badiiy an'ananing uyg'unlashuvini namoyon etadi.

Shu tariqa, «Tuhfat ul-ahbob» asarida oronimlar nisbatan kam bo'lishiga qaramay, yuqori ma'rifiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Hofizi Ubāhiy ularni izohlashda qisqa va aniq ta'riflar bilan bir qatorda diniy rivoyatlar hamda klassik shoirlar baytlariga tayangan holda berilgan kengaytirilgan tavsiflardan foydalanadi. Ushbu yondashuv oronimlarning lug'atda faqat tabiiy relef nomlari sifatida emas, balki muallif yashagan davrning geografik, diniy va adabiy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim onomastik birliklar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Gidronimlar. Gidronim atamasi yunoncha *hydōr* – «suv» va *ónoma* – «nom» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, daryolar, ko'llar, ariq-jarlar hamda boshqa tabiiy suv manbalari nomlarini anglatadi [16,62]. Onomastik tadqiqotlarda gidronimlar toponimlarning muhim quyi guruhi sifatida e'tirof etiladi, chunki ular nafaqat geografik voqelikni aks ettiradi, balki o'zida tarixiy, ijtimoiy va adabiy axborotni ham saqlab keladi.

«Tuhfat ul-ahbob» materiali tahlili shuni ko'rsatadiki, lug'atda gidronimlar miqdoran cheklangan bo'lsa-da, ularning izohi yuqori ma'rifiy yuklama bilan berilgan. Hofizi Ubāhiy suv obyektlari nomlarini sharhlashda, avvalo, obyektning turini aniqlaydi va ayrim

hollarda ma'noni mustahkamlash uchun klassik adabiyot namunalariga murojaat qiladi. Bu yondashuv gidronimlarning lug'atda faqat makon ko'rsatkichi sifatida emas, balki geografik va adabiy bilimlarni uzatuvchi muhim vosita sifatida talqin etilganidan dalolat beradi.

Lug'atda gidronimlar guruhiga **Arvand, Bodoxun, Zav, Ko'l, Obishxur, Farğar, Farkand**, shuningdek insulonimlar – **Bartoyil, Kurunis, Kayus, Kanknor** kiradi. Ushbu nomlar suv mavjudligi yoki suv bilan bog'liq muhitga ishora qilgan holda izohlangan bo'lib, nomlash funksiyasiga ko'ra gidronimlar sirasiga mansubdir. Jumladan, lug'atda **Farğar** gidronimi quyidagicha sharhlanadi: *Farğar – asosiy oqimdan ajratib olinadigan suv arig'i; shuningdek, tog' etaklarida oqib o'tgan suvlar asta-sekin to'planadigan makon ham shu nom bilan ataladi [15,188].*

Bu izoh farğar nomining bir vaqtning o'zida sun'iy sug'orish tizimi va tabiiy gidrologik hodisani ifodalashini ko'rsatadi. Shu orqali gidronim suv xo'jaligi amaliyoti va geografik muhit bilan uzviy bog'langan holda talqin etiladi. Jumladan:

Obishxur gidronimi shunday izohlanadi: *Obishxur – yovvoyi hayvonlar va shunga o'xshash mavjudotlar suv ichadigan joy. Firdavsiy bayti:*

Чаҳондор Маҳмуд, шоҳи бузург,

Ба обишхӯр орад ҳаме мешу гург [15,127].

Bayt mazmuni: Jahondor Mahmud buyuk shoh sifatida tasvirlanadi; u hatto bo'ri bilan birga obishxur, ya'ni jonivorlar suv ichadigan joyga kelib, suv ichadigan darajada qudrat va jasorat sohibi sifatida ko'rsatiladi.

Bu misol obishxurning amaliy foydalanishga bog'liq gidronim ekanini ko'rsatib, uni ijtimoiy va adabiy tasvir sathiga olib chiqadi.

Shuningdek, **Kurunis** kabi insulonimlar rivoyatiy-adabiy makon bilan bog'liq bo'lib, suv muhitini qahramonlar faoliyati kechadigan sahna sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Natijada gidronimlar «Tuhfat ul-ahbob»da faqat tabiiy suv obyektlari nomlari emas, balki davrning geografik, ijtimoiy va adabiy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim onomastik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Oykonimlar. Oykonim atamasi yunoncha *oikos* – «uy, yashash joyi» va *ónoma* – «nom» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, shahar, qishloq, viloyat, mulk hamda boshqa aholi yashaydigan makonlar nomlarini anglatadi [4; 16,62; 9]. Onomastik tadqiqotlarda oykonimlar toponimlarning eng muhim quyi guruhlaridan biri sifatida qaraladi, chunki ular nafaqat inson yashaydigan hududning geografik joylashuvini ko'rsatadi, balki jamiyatning tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini ham o'zida mujassam etadi.

«Tuhfat ul-ahbob» asari materiali tahlili shuni ko'rsatadiki, unda oykonimlar alohida faollik bilan qo'llanilib, XVI asrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy makonini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Hofizi Ubāhiy shaharlar va aholi yashash maskanlari nomlarini izohlash jarayonida, asosan, ularning geografik joylashuvi, siyosiy

yoki iqtisodiy mavqei, ayrim hollarda esa madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv oykonimlarning lug'atda faqat makon nomlari sifatida emas, balki yuqori ma'rifiy va tarixiy qiymatga ega bo'lgan onomastik birliklar sifatida talqin etilganidan dalolat beradi.

Lug'at materiallari asosida «Tuhfat ul-ahbob»da oykonimlar guruhiga mansub quyidagi birliklarni ajratish mumkin: **Lakūr, Fanorūz, Karux/Karūx, Lūhur, Andarob, Afranja, Bum, Shovg'ar, Mayovar, Minovar, Munavvar, Soryon, Fag'unshūr/Fug'unshūr, Fomor, Furandiyus, Zegunun, Buxavraha, Bandur, Balosh, Barona, Vaxsh, Tanja, Omūy, Parvon, Kakrī, Kūhbar, Lūkur, Farg'ona, Fansur, Cholundar, G'otfar, Qizdor, Quyo, Sandal.** Ushbu nomlar lug'atda aynan shahar, qishloq yoki viloyatga ishora qilgan holda izohlangan bo'lib, nomlash funksiyasiga ko'ra oykonimlar sirasiga kiradi.

Jumladan, **Fanorūz** oykonimi lug'atda quyidagicha sharhlanadi: *Fanorūz – Samarqand hududidagi bir joy nomi bo'lib, u yerda tayyorlanadigan sharobning sifati yuksak ekani bilan mashhur* [15,184].

Mazkur izoh Hofizi Ubāhiyning oykonimni faqat geografik ko'rsatkich sifatida emas, balki uning iqtisodiy va madaniy xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilganini ko'rsatadi. Bu yerda aholi punkti mahalliy mahsulot – sharob ishlab chiqarish orqali tavsiflanib, makon nomi ijtimoiy-iqtisodiy axborot tashuvchisi darajasiga ko'tariladi. Fanorūz misolida oykonimning yarim ensiklopedik xarakter kasb etishi «Tuhfat ul-ahbob»ga xos bo'lgan lug'atshunoslik uslubini yaqqol namoyon etadi [17].

Shuningdek, **Munovar** oykonimi lug'atda quyidagi izoh bilan qayd etilgan: *Munovar – Xutan yaqinida joylashgan shahar bo'lib, u yerdan chiroyli qullar keltirilgan.* Bayt:

Эй хурваш буте, ки чу бинанд мар туро,
Гўянд рӯи ту моҳи муноварӣ [15,111].

Bayt mazmuni: Shoir go'zal va hurga o'xshash ma'shuqani madh etib, uni ko'rgan har kim uning yuzini nur sochib turgan porloq oyga qiyoslaydi.

Ushbu misolda muallif oykonimni bir tomondan geografik joylashuvi («Xutan yaqinida»), ikkinchi tomondan esa ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi orqali tavsiflaydi. She'riy bayt shahar nomining semantik mazmunini estetik va adabiy tasavvurlar bilan boyitib, oykonimga ma'naviy-ramziy xususiyat bag'ishlaydi. Natijada Munovar nomi sof geografik birlik darajasidan chiqib, madaniy va badiiy tasavvurlar bilan bog'langan onomastik birlik sifatida talqin etiladi.

Urbanonimlar. Oykonimlar doirasida «Tuhfat ul-ahbob» shahar makonining ichki nomlarini ham qamrab oladi. Onomastika ilmida bunday nomlar **urbanonim** (lot. *urbanus* – «shaharga oid») atamasi bilan ifodalanadi [16,62]. Urbanonimlar shahar va aholi yashash maskanlarining ichki qismlariga oid nomlarni – mahalla, ko'cha, tor ko'cha, guzar

va boshqa shahar birliklarini o'z ichiga oladi. Nomlash tabiati jihatidan ular oykonimlarning quyi turi hisoblanadi.

«Tuhfat ul-ahbob» asari materiali shuni ko'rsatadiki, Hofizi Ubāhiy urbanonimlarni alohida va mustaqil guruh sifatida ajratmaydi, balki ularni aholi yashash makonini nomlashning umumiy tizimi doirasida bayon qiladi. Ushbu guruhga **Barzan** («ko'cha boshi, mahalla»), **Marz** («mulk chegarasi va insonlar yashash hududi»), **Marj**, **Marzagan/Marg'azan** («qabriston»), **Mehan** («yashash joyi, xonadon») hamda **Mag'ilgoh** («chorva uchun tunash va yashash joyi») kabi birliklar kiradi.

Mazkur urbanonimlar muallifning shahar makonini faqat fizik hudud sifatida emas, balki inson hayoti, ijtimoiy munosabatlar va kundalik faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan tirik tizim sifatida anglaganini ko'rsatadi. Urbanonimlar orqali shahar ichki tuzilmasining ijtimoiy, xo'jalik va madaniy qatlamlari aks ettiriladi, bu esa lug'atning lingvomadaniy qiymatini yanada oshiradi.

Shu tariqa, «Tuhfat ul-ahbob» asarida oykonimlar va urbanonimlar lug'atning toponimik tizimida muhim o'rin egallaydi. Hofizi Ubāhiy ularni izohlash jarayonida makon turini aniqlovchi ixcham ta'riflar bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy va adabiy jihatlariga ishora qiluvchi kengaytirilgan tavsiflardan samarali foydalanadi. Natijada oykonimlar va urbanonimlar lug'atda faqat aholi yashash maskanlari nomlari sifatida emas, balki muallif yashagan davrning tarixiy, ijtimoiy va madaniy makonini aks ettiruvchi mazmundor onomastik birliklar sifatida talqin etiladi.

«**Tuhfat ul-ahbob**»da **me'moriy-harbiy va diniy toponimlar**. «Tuhfat ul-ahbob» asarining toponimik tizimida inson tomonidan bunyod etilgan inshootlar va makonlar, shuningdek diniy va ramziy ahamiyatga ega bo'lgan joylarga oid maxsus toponimlar guruhi alohida o'rin tutadi. Onomastika ilmida bunday birliklar **me'moriy-harbiy va diniy toponimlar** sifatida talqin etiladi. Ushbu guruhga qal'alar, hisorlar, borgohlar, qasrlar, butxonalar hamda e'tiqodiy va mafkuraviy qiymatga ega bo'lgan makonlar nomlari kiradi.

Lug'atda mazkur turdagi toponimlarning mavjudligi shuni ko'rsatadiki, Hofizi Ubāhiy makon nomlarini izohlashda faqat tabiiy muhit yoki aholi yashash joylari bilan cheklanib qolmaydi. Muallif inson tomonidan yaratilgan makonni – ya'ni **hokimiyat, mudofaa va e'tiqod muhitini** ham o'z davrining geografik va madaniy manzarasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, me'moriy-harbiy va diniy toponimlar «Tuhfat ul-ahbob»da nafaqat nomlash vositasi, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy axborotni mujassam etuvchi birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Asar materiallari tahlili Hofizi Ubāhiy mazkur toponimlarni izohlash jarayonida, asosan, куйидаги асосий мезонларга таянадиганини кўрсатади:
– inshoot yoki makon turini aniq belgilash (qal'a, borgoh, qasr, butxona);

– uning joylashuvi hamda siyosiy yoki diniy muhitiga ishora qilish (muayyan hudud, musulmonlar zamini, tarixiy davr);

– ramziy yoki tarixiy-e'tiqodiy rolini ta'kidlash (hokimiyat markazi, ibodat maskani, afsonaviy davr belgisi).

Mazkur yondashuv bu toponimlarning lug'atda nafaqat nominativ, balki **axborotiy va ma'rifiy vazifani** ham bajarayotganini ko'rsatadi. «Tuhfat ul-ahbob»da me'moriy-harbiy va diniy toponimlar guruhiga mansub quyidagi birliklar aniqlanadi: **Madanj, Kolunjar, Dij/Dej, Guhunbor, Ko'shk, Bahramand/Bahraman, Minubod**. Ushbu nomlar lug'atda aynan inson tomonidan bunyod etilgan inshootlar yoki e'tiqodiy ahamiyatga ega makonlarga ishora qilgan holda izohlangan bo'lib, nomlash tabiati jihatidan mazkur toponimlar sirasiga kiradi.

Jumladan, **Madanj** toponimi lug'atda quyidagicha sharhlanadi: *Madanj – Hindistonda, musulmonlar hududida joylashgan qal'a nomi [15,103]*.

Mazkur izohda muallif inshoot turini aniqlash bilan kifoyalanmay, “musulmonlar hududi”ga ishora qilish orqali qal'aga siyosiy va diniy maqom ham yuklaydi. Bu holatda Madanj qal'asi islomiy makonning mudofaa va hokimiyat chegarasini ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Natijada toponim sof harbiy inshoot nomidan chiqib, tarixiy-siyosiy mazmunga ega bo'lgan onomastik birlik darajasiga ko'tariladi.

Shuningdek, **Minubod** toponimi ham lug'atda alohida tarixiy-ramziy mazmunda qayd etilgan: *Minubod – Zahhok zamonidagi sahro (bodiya) nomi [15,107]*.

Minubod bu yerda nafaqat geografik makon, balki afsonaviy-tarixiy qiymatga ega bo'lgan toponim sifatida namoyon bo'ladi. Uning Zahhok davri bilan bog'lanishi mazkur makonga ramziy va mifologik xususiyat baxsh etib, uni epik tarixning rivoyatli makoni bilan uzviy bog'laydi.

Shu tariqa, «Tuhfat ul-ahbob» asarida me'moriy-harbiy va diniy toponimlar faqat inshootlar va makonlar nomlari sifatida emas, balki chuqur tarixiy, siyosiy va e'tiqodiy mazmunga ega bo'lgan onomastik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Hofizi Ubāhiy ularni izohlashda ixcham va aniq ta'riflar bilan bir qatorda, muhim holatlarda klassik adabiyot namunalari murojaat qiladi. Ushbu yondashuv mazkur toponimlarning lug'atda XVI asrning siyosiy, diniy va madaniy dunyoqarashini faol aks ettiruvchi semantik markazlar sifatida xizmat qilganini yaqqol ko'rsatadi.

Xulosa, «Tuhfat ul-ahbob» asari materiali tahlili mazkur lug'atda toponimlar faqat makon nomlarini belgilash vositasi bo'lib qolmay, balki XVI asrning geografik, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy va adabiy makonni aks ettiruvchi muhim leksik birliklar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Hofizi Ubāhiy joy nomlarini sharhlashda murakkab va tizimli yondashuvni qo'llab, toponimlarni obyektlarning tabiiy xususiyatlari, geografik joylashuvi, ijtimoiy vazifasi hamda ramziy va e'tiqodiy ahamiyati bilan uzviy bog'liq holda izohlaydi.

Tadqiqot jarayonida «Tuhfat ul-ahbob»dagi toponimlar semantik va funksional jihatdan **oronimlar, gidronimlar, oykonimlar, urbanonimlar hamda me'moriy-harbiy va diniy toponimlar** kabi asosiy guruhlarga ajratildi. Ushbu tasnif lug'atda makon

nomlashning puxta va izchil tizimi mavjud ekanidan, shuningdek, muallifning toponimik materialni tasniflashda aniq konseptual yondashuvga amal qilganidan dalolat beradi. Har bir toponimik guruh o'ziga xos ma'rifiy vazifani bajarib, muallifning geografik bilim doirasi va dunyoqarashini yoritishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, «Tuhfat ul-ahbob» faqat izohli lug'at emas, balki **qimmatli onomastik, lingvomadaniy va tarixiy manba** hisoblanadi. Undagi toponimlar tarixiy va mifologik xotirani saqlash hamda uzatish vositasi sifatida xizmat qilib, muallif yashagan davrning madaniy va geografik muhitini har tomonlama aks ettiradi. Mazkur lug'at toponimlarini yanada chuqurroq o'rganish o'rta asrlar fors-tojik madaniyati, tili va dunyoqarashini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Azimova D.** Linguocultural Aspects of Toponyms in Classical Persian Texts // *Journal of Oriental Studies*. – 2020.
2. **Kadmon N.** *Toponymy: The Lore, Laws and Language of Geographical Names*. – New York: Vantage Press, 2000.
3. Majitova S. The lexical subtleties of some letters of arabic alphabet in gazelles of Djami // *International Journal of Science and Research (IJSR)*, INDIA, Volum. – 2018. – T. 7. – №. 5.
4. **Room A.** *Place-Names of the World*. – London: McFarland & Company, 1996.
5. Yo'ldoshev B. O'zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand. SamDU nashri. 2011, -112 b.
6. Асадии Тўсий. Луғати фурс / Муқаддима, таҳия, таълиқот, ҳошия, луғот ва феҳристи Нурулло Гиёсов. Хучанд: Нури маърифат, 2015. 492 с.
7. Воҳидов А. Аз таърихи фарҳангшиносии форсу тоҷик. – Самарқанд. Нашри ДДС. 2019.
8. Суперанская А. В. Что такое топонимика? – Москва: Наука, 1985.-182 стр.
9. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. -368 с.
10. **Топоров В.Н.** Ономастика и мифология//Мифы народов мира. – Москва: Советская энциклопедия, 1987.
11. Холназаров Р. Таҳлили лингвистӣ, гендерӣ ва омории антропонимҳои ноҳияи Лахш. – Душанбе: 2019.-167 с.
12. Шоев Р. Ономастикаи “Самаки айёр”. – Душанбе: Ирфон, 2013.-192 с
13. Ҳомидов Д. Забони тоҷикӣ ва номшиносӣ. – Душанбе: 2018.- 271 с.
14. Ҳомидов Д. Сарнавишти вожаҳо, - Душанбе, 2008.
15. Ҳофизи Ўбаҳӣ, Тӯҳфат-ул-аҳбоб, муаллифи муқаддима, тавзеҳот, илова ва феҳристҳо Ҳофиз Рауфзода. -Душанбе: Ирфон, 1992. -288 с.
16. Чумбаҳон Алимӣ. Ономастика (назария ва амалия). – Душанбе: 2017.-552 с.
17. د هخدا علی اکبر. لغتنا مه. جلدہای ۱ و ۱۴. چاپ اول. تهران. ۱۳۷۲
18. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/12489>
19. <https://ejournals.id/index.php/IJWL/article/view/1082>